

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIY
FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari.....	33
---	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	40
---	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari.....	43
--	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari.....	62
---	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat.....	67
--	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
---	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili.....	93
---	----



UO'K: 821.512.133.(092)+37:017

QO'QON ADABIY MUHITINI RIVOJLANTIRISHDA AYOLLARNING RO'LI

РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ КОКАНДСКОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЫ

THE ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF THE KOKAND LITERARY ENVIRONMENT

Qambarov Abdumutal Ahadjonovich¹ ¹Farg'ona davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktoriAbdusalimova Ma'muraxon Anvarjon qizi² ²Musiqiy ta'lim va san'at yo'nalishi magistri

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo'qon xonligi va keyingi davrlarda o'zbek xalqining ma'naviy taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shgan olim va shoira ayollarning ijodi to'g'risida fikr yuritiladi. Jumladan, Uvaysiy, Nodira, Dilshod otin, Mahzuna, Anbar otin kabi shoirlarning Qo'qon adabiy muhiti rivojlanishiga qo'shgan xissalari to'g'risidagi xizmatlari atroflicha tahlil qilinadi.

Аннотация

В данной статье рассматривается творчество женщин-ученых и поэтов, внесших большой вклад в духовное развитие узбекского народа в период Коканского ханства и в более поздние периоды. В частности, подробно анализируется вклад таких поэтов, как Увайсий, Надира, Дильшадин, Махзуна, Анбаратин, в развитие литературной среды Коканда.

Abstract

This article examines the work of women scientists and poets who made a great contribution to the spiritual development of the Uzbek people during the period of the Kokan Khanate and in later periods. In particular, the contribution of such poets as Uvaysiy, Nadira, Dilshadatin, Makhzuna, Anbaratin to the development of the literary environment of Kokand is analyzed in detail.

Kalit so'zlar: madaniyat, ma'naviyat, san'at, adabiyot, ilm-fan, Turkiston, ma'rifatparvar, tasavvuf, insonparvarlik.

Ключевые слова: культура, духовность, искусство, литература, наука, Туркестан, просвещение, мистика, гуманизм.

Key words: culture, spirituality, art, literature, science, Turkestan, enlightenment, mysticism, humanism.

KIRISH

O'zbek xalqining madaniyati ilm-fan taraqqiyoti ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, u uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Ayniqsa, xonliklar davridagi uzluksiz davom etgan o'zaro feodal urushlar madaniyatimiz va ilm-fanning rivojlanishiga to'sqinlik qilib kelgan. Shunday bo'lsa-da, xalq o'z madaniyatini ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, avloddan-avlodga yetkazishga harakat qilgan.

Mamlakatimiz barcha sohada ildam qadamlar tashlanayotgan bir davrda ma'naviyatimizning tarixiy ildizlariga nazar tashlash, xalqimiz ilmiy-madaniy merosini chuqur o'rganish ehtiyoji yanada ortib bormoqda. "Azal-azaldan xalq ijod ahliga juda katta hurmat va ishonch bilan qaragan"[1,182]. Bu borada Qo'qon xonligi va keyingi davrida Turkiston ayollarining ilm-fanga qo'shgan hissasi alohida ta'kidlash o'rinlidir. Ularning dunyo ilm-fani va ma'naviyati ravnaqiga qo'shgan xissalari biqiyos va olamshumul ahamiyatga ega.

Qo'qon xonligining o'sha davrdagi qiyinchiliklariga qaramasdan xotin-qizlar ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyotning taraqqiyotiga o'z munosib hissalarini qo'shganlar. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi juda ko'p qo'shiq, ertak va dostonlarning ijodchilari bo'lgan Uvaysiy, Nodira, Dilshod otin, Mahzuna, Anbar otin, Zebunoso, Ziynat, Saidabonu, To'ti qiz, Fazilatbonu, Xayriniso kabi o'z davrining o'tkir lirik shoirlar shular jumlasidandir. Mazkur maqolada Uvaysiy, Nodira, Dilshod otin, Mahzuna Anbar otin kabi shoirlarning Qo'qon adabiy muhiti va ilm-faniga qo'shgan xissalari to'g'risida fikrlar bayon qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Qo'qon xonligi va keyingi davrlarda o'zbek xalqining ma'naviy taraqqiyotiga, shuningdek, Qo'qon adabiy muhitida munosib o'rin egallagan Uvaysiy, Nodira, Dilshod otin, Mahzuna kabi shoirlar o'z asarlarida davrning hukmron feodallar tomonidan erk va huquqlardan mahrum qilingan ayollarning dardlari, fig'onlari aks ettirganlar. Jumladan, ma'rifatparvar shoira Jahon otin Uvaysiyning adabiy merosida 269 g'azal, 29 muhammas, 55 musaddas, 1murabba, chiston, 3 doston, tugallanmagan bir manzuma bo'lgan[2,35]. U hayotlik davridayoq nafis lirikasi bilan mashhur bo'lgan va zamondoshlari e'tiborini qozongan. Lirik she'rlaridan tashqari, uning "Shahzoda Hasan", "Shahzoda Husan" kabi liro-epik asarlari va "Voqeoti Muhammad Alixon" kabi tarixiy dostonlari tarix fanining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan.

"Komila" va "Maknuna" taxalluslari bilan ijod qilgan Nodirabegim o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri desak, aslo xato qilmagan bo'lamiz. Bugungi kunda uning to'la bo'lmagan o'zbekcha devoniga 109 (1704 misra) g'azali kiritilgan[3]. Shoiraning "Komila" taxallusi bilan yozgan 19 (328 misra) g'azali hozirda O'zbekiston FA Tarix muzeyi arxivi saqlanmoqda. 1962 yilda Nodirabegimning Namanganda mukammal devoni topilgan bo'lib, hozirgi kunda O'zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida saqlanadi. Devonda shoiraning "Nodira" taxallusi bilan o'zbek va tojik tillarida yozgan 180 she'ri jamlangan. Jumladan, devon 11 muhammas, 2 musaddas, 1 musamman, 1 tarji'band, 1 tarkiband va 1 firoqnomalarni o'z ichiga qamrab olgan. Shuningdek, O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida Nodiraning "Maktuna" taxallusi bilan yozilgan 333 g'azaldan iborat devoni ham mavjud[4].

Qo'qon xonligining o'ziga xos olima ayollari biri bo'lgan Dilshod otinning 91 ta o'zbekcha, 51 ta tojikcha she'ri, "Tarixi muhojiron" badiiy-tarixiy asarining o'zbekcha va tojikcha uch qo'lyozma nusxasi ("Taskirai Barno", "Sabotul-bashar maa Tarixi muhojiron" – "Inson matonati va Muhojirlar tarixi"), "Muntaxabul-ash'ori Barno" – ("Barnoning tanlangan she'rlari") bizgacha yetib kelgan[5,32]. Bu asarlarda o'zaro urushlar, xalqning turmush sharoiti va boshqa ijtimoiy-siyosiy voqealar o'z ifodasini topgan.

Anbar otin Qo'qon xonlik davrida ijod qilgan Dilshod otinning eng sevimli shogirdlaridan biri bo'lgan. Shoira o'z davrida o'zbekcha she'rlaridan devon tuzgan. Undan 41 g'azal, 4 muhammas, 1 qit'a, 1 masnaviy, 1 mustazod o'rin olgan (1905). 1970 yillarning boshida Anbar otinning 40 ga yaqin she'rdan iborat yana bir qo'lyozmasi hamda 160 misralik "yakka bayt"lari topilgan[6,311].

Mazkur maqolani yozishda dialektik, tarixiylik va mantiqiylik, tizimliylik, kompleks yondashuv usullardan oqilona foydalanildi.

NATIJALAR

O'z davrining ma'rifatparvar shoirasi Jahon otin Uvaysiy (1771-1845) Qo'qon adabiy muhitiga o'zining ijobiy va katta ta'sirini ko'rsatgan olima va shoira ayollardan biridir. Shoira Qo'qon xonligida tashkil etiladigan ko'plab mushoirlarda qatnashgan. Shuningdek, u saroyda Nodira va boshqa xotin-qizlarga she'riyat ilmidan dars berib, ustozlik qilgan. Shoira mumtoz o'zbek she'riyatining barcha janrlarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliy kabi shoirlarning asarlariga muhammaslar bog'lagan.

Asli ismi Mohlaroyim bo'lgan shoira, ma'rifatparvar va davlat arbobi bo'lgan, "Komila" va "Maktuna" taxalluslari bilan ijod qilgan Nodirabegim (1792-1842) she'riyatining asosini lirika tashkil qiladi. U go'zallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, og'u fig'onlarini kuyladi. Nodirabegim o'z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshibandiya sho'nalishiga asoslangan bir butunlik orqali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo'lidagi ruhiy dunyosini ham juda go'zal va jonli misralarida ifodalab beradi. Nodirabegim she'rlarida islom ruhi, tasavvuf ta'limi va hayot falsafasini chuqur idrok etgan holda hayotga hamma vaqt umidbaxsh nigoh bilan qaraydi va undan yaxshilik urug'ini qidiradi[7,378].

"Barno", "Dilshodi Barno" taxalluslari bilan she'rlar yozgan Dilshod otin (1800-1905)ning "Tarixi muhojiron" asarida XIX asrlarda Qo'qon xonligi davrida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy va tarixiy voqealar aks etgan. Mazkur asarida shoira ayollarni ma'rifatli, erkin, jamiyatning teng huquqli a'zolari bo'lishga chorlagan. Shuningdek, shoira o'zining "Tarixi muhojiron" nomli asarida Qo'qonda yashagan 30 dan ortiq shoir hamda shoirlar ijodi to'g'risida aniq va muhim ma'lumotlar beradi[8,299].

Xotin-qizlar orasidan yetishib chiqqan o'zbek ma'rifatparvar shoirasi Anbar otin Farmonqul qizi (1870-1906) garchi Qo'qon xonligi davrida faoliyat olib bormagan bo'lsa-da, xonlik davrida ijod qilgan Dilshod otinning eng sevimli shogirtlaridan biri bo'lgan. Shoira "Risolai falsafii siyoxon"

(“Qoralar falsafasi”) asari orqali ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga, odamlarning turli tabaqalariga nisbatan o‘z qarashlarini bayon qiladi, shuningdek, ayollarning qora qismati haqida gapirib, ularning jamiyatda qonuniy o‘rni va huquqi bo‘lishligini talab qilib chiqadi, shuningdek, ularga nisbatan mehrli va muruvvatli bo‘lish kerakligini aytadi.

MUHOKAMA

Uvaysiyning ijodi serqirra bo‘lib, o‘z asarlarida o‘sha davrning hukmron feodallar tomonidan erk va huquqlardan mahrum qilingan ayollarning dardlari, fig‘onlarini aks ettirgan. Ayniqsa, u o‘zining “Anor” nomli chistoni orqali davrning ijtimoiy voqealari, ayollarning ijtimoiy xolatlarini mohirona ochib bergan. 1842- yilda Buxoro amiri Nasrulloxon Qo‘qonni ishg‘ol qilgach, Uvaysiy Marg‘ilonga qaytib, umrini oxirigacha shu yerda yashaydi[9,172]. Hozirgi kunda Marg‘ilonda Uvaysiyning uy muzeyi faoliyat olib bormoqda.

Nodirabegimning ijodiga bo‘lgan qiziqish u hayotlik chog‘idanoq boshlangan. Davrning mashhur shoirasi Dilshod Nodirabegimga maxsus g‘azallar bag‘ishlab, uni “ilm-adab va nazm osmonining yulduzi, ushshoqlari g‘azalxon, shakar sochuvchi bulbul” deb ta’riflaydi.

Nodirabegim adabiy merosi bugungi kun adabiyot fanining asosini tashkil etadi. Chunki uning adabiy merosi o‘zining g‘oyaviy-badiiy ahamiyati nuqtai nazaridan mumtoz she’riyatning go‘zal namunalaridan desak, aslo mubolog‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston FA Tarix muzeyi arxivi saqlanayotgan “Komila” taxallusi bilan yozgan g‘azallarida tarix fanni rivojlanishiga bevosita katta ta’siri borligi ko‘zga tashlanadi. Bugungi kunda shoiraning o‘zbek va fors-tojik tillarida yaratilgan 10 ming misraga yaqin lirik merosiga egamiz. Ko‘rinib turibdiki, o‘z davrining yetuk olima ayollari singari Nodirabegim ham ilm-fan taraqqiyotiga, ayniqsa adabiyot fanining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan.

O‘z davrining yetuk bilimdoni bo‘lgan Dilshod otinning “Tarixi muhojiron” nomli asari Qo‘qon xonligi tarixini atroflicha o‘rganishda yaqindan yordam beradi. Shuningdek, asarda keltirilgan tarixiy manbaalar shoiraning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o‘rni va rolga baho berishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tarixchisi A.Muxtorov 1969-yili uning ikki qo‘lyozma asarini topib, ular asosida monografiya yozgan[10]. Monografiyada shoiraga yuksak baho berilib, uning buyuk iste’dod ekanligi bayon qilingan.

Arab, fors tillarining yuksak bilimdoni, o‘zbek shoiralaridan biri Mehribon mulla Boshmon qizi Mahzuna (1811- ?) Navoiy, Jomiy, Fuzuliy kabi shoirlarning ijodidan ta’sirlangan, o‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan. U o‘zbek tili va adabiyoti fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Fazliyning “Majmuai shoiron”, Hashmatning “Tazkirat ush-shuaro” tazkiralarda Mahzunaning oqila va hozirjavobligi, shuningdek, Qo‘qonda mashhur shoira ekanligi aytilgan. Tarixchi Ahmadjon To‘ra ham Mahzunaning barkamol shoira ekanligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, Fazliy shoira haqida ko‘p iliq gaplar aytadi. Jumladan: “Garchi ul zaifa bo‘lsa ham, nutqining mazmundorligi jihatidan erkaklardan ustundir”[11,555], - deydi.

Anbar otinning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida dadillik, haqgo‘ylik, insoniylik kabi fazilatlar o‘z aksini topgan. U o‘zining asarlarida insonparvarlik, vatanga, xalqqa muhabbat g‘oyalarini ilgari suradi. Anbar otin o‘z asarlarida xalq hayotini tasvirlar ekan, birinchi navbatda o‘zbek ayollarining to‘rt devor ichida kechirayotgan qayg‘u va alamlarga to‘la hayotini, ularning ozodlikka bo‘lgan intilishlarini yorqin misralarda ifodalashga harakat qiladi. U o‘z zamonasi ayollarining sarkori bo‘lib, mehnatkash mushfiq ayollarni g‘aflat uyqusidan uyg‘onishga, o‘z ozodligi uchun kurashishga chaqiradi.

Zamon, sharoit qanchalik murakkab va og‘ir bo‘lmasin, shoira haqiqatni aytishdan cho‘chimaydi, balki xalqni ma’naviy qullikda, jaholatda tutuvchi riyokor ulamoyu-shayxlarni qattiq tanqid qiladi. U kambag‘al xalq hayotiga achinadi, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi chiqadi. Shoira mustamlakachilik hukmronligini tanqid qilib, o‘zbek xalqining izzat-nafsini, erkinligini himoya qiladi. Bu o‘rinda uning “Noibto‘ra ayoli Yekotrina”ga atalgan she’rlari g‘oyat ibratlidir:

O‘zbek ahlidin nechand olim chiqqandur bilsangiz,

Shak kelturib ilmimizga, fe’li shayton etmangiz.

Ko‘rinib turibdiki, shoira chor podsholigi, amaldorlarning mahalliy millat vakillariga nisbatan tutgan siyosatiga, munosabatiga norozilik bildirib, o‘zbek xalqi buyuk olimlarni yetishtirgan, to‘la ozodlikka munosib xalq ekanligini ta’kidlaydi.

Anbar otin ilm-fanning xalq hayotida katta ahamiyat kasb etishini chuqur anglab yetadi. U chinakam insoniylik kishining ruhiy boyligidir, ruhiy boylik esa ma’rifat orqali vujudga keladi, deydi. Shu nuqtai nazardan xalqni ma’rifatli, bilimli bo‘lishga, ayniqsa yoshlarni ilm olishga, maktablarga

FALSAFA

borib o'qishga chaqiradi. Anbar otin mash'um zamonani o'zgartirish xalqning o'z qo'lida, uning harakatida, ilm-zakatida ekanligini juda to'g'ri anglab yetgan. Shoiraning asarlari kishilarni, ayniqsa yoshlarimizni Vatanga sadoqat, xalqqa cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

XULOSA

Ko'rinib turibdiki, Uvaysiy, Nodira, Dilshod otin, Mahzuna, Anbar otin kabi ilm-fan, madaniyat va ma'rifat namoyondalarining ijodi tarixiy manbalarga boyligi, ijtimoiy mazmundorligi, haqqoniyligi, xalqparvar g'oyalar bilan sug'orilganligi uchun ham o'zbek mumtoz adabiyoti va o'sha davr ilm-fanining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: O'zbekiston. NMIU. 2018. 2-jild. –B. 182
2. O'zbek Milliy Ensiklopediyasi. –Toshkent: 9-jild. 2005. –B. 35
3. Devon hozirgi kunda O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. INV. № 4132
4. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondi. INV. № 7766
5. Milliy Uyg'onish dari o'zbek adabiyoti. –Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti. 2004. –B. 32
6. O'zbek Milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: 1-jild. 2000. –B. 311
7. O'zbek Milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: 6-jild. 2003. –B. 378
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: 2002. 3-jild. –B. 299
9. Bobobekov X. Qo'qon tarixi. –Toshkent: Fan. 1996. –B. 172
10. Muxtorov A. Dilshod i yeyo mesto v istorii obshchestvennoy mysli tadzhikskogo naroda v XIX - nachale XX vv. Monografiya. –Dushanbe. 1969
11. O'zbek Milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: 5-jild. 2003. –B. 555